

---

## BILASIZMI?



### **Bilasizmi?**

Ish staji yetarli bo'lmasa ham pensiya tayinlanadimi?

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasiga ko'ra, yoshga doir pensiya olish huquqiga:

erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Agar pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu Qonun 37-moddasi birinchi qismining «a», «b», «v» va «g» bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

**Muyassarxon Turabegova - So'x tuman adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi AKT operatori**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-13 15:56:32